



UDK: 070.1:070.13(575.1-25)

Sadoqat RAXMATOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti o‘qituvchisi
E-mail:sadoqat.rahmatova97@gmail.com

O‘zDJTU professori v.b., f.f.d (DSc) D.Aminova taqrizi asosida

QASHQADARYO VILOYATI PRESSASINING KONTENT VA AXBOROT TARQATISH TIZIMI

Annotatsiya

Ushbu maqola O‘zbekiston viloyat nashrlarining axborot uzatish mexanizmlarini ilmiy manbalar asosida tizimli tahlil qiladi. Nashrlarning tarixiy taraqqiyoti, nazariy talqinlari va raqamli transformatsiyasi, shuningdek, Qashqadaryo viloyatida bosma nashrlarning zamonaviy raqamli kommunikatsiya sharoitidagi faoliyati keng yoritilgan. Tuman va shahar gazetalarining mahalliy yangiliklar, ijtimoiy-madaniy masalalar bo‘yicha axborotni to‘plash va yetkazish jarayonlari qiyosiy tahlillar natijasida ochib berilgan. Maqolada nashrlarning janr xilma-xilligi, bosma-raqamli kanallar, qonuniy asoslari va jamiyatdagi muhim roli ham alohida e‘tibor markazida.

Kalit so‘zlar: Hududiy nashrlar, axborot uzatish aspektlari, hududiy matbuot, Qashqadaryo viloyati gazetlari, raqamli kommunikatsiya, bosma va raqamli media, jurnalistika janrlari, mahalliy axborot tizimi, ommaviy axborot vositalari, media transformatsiyasi.

СИСТЕМА КОНТЕНТА И РАСПРОСТРАНЕНИЯ ИНФОРМАЦИИ ПРЕССЫ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация

Настоящая статья проводит системный анализ механизмов распространения информации региональными изданиями Узбекистана на основе научных источников. Широко освещено историческое развитие изданий, их теоретические интерпретации и цифровизация, а также деятельность печатных изданий в Кашкадарьинской области в условиях современной цифровой коммуникации. Процессы сбора и распространения информации районными и городскими газетами по местным новостям и социально-культурным вопросам раскрыты на основе сравнительного анализа. В статье отдельное внимание уделено разнообразию жанров изданий, печатно-цифровым каналам, правовым основам и их важной роли в обществе.

Ключевые слова: Региональные издания, аспекты распространения информации, региональная пресса, газеты Кашкадарьинской области, цифровая коммуникация, печатные и цифровые СМИ, жанры журналистики, местная информационная система, средства массовой информации, медийная трансформация.

CONTENT AND INFORMATION DISSEMINATION SYSTEM OF QASHQADARYO REGION PRESS

Annotation

This article conducts a systematic analysis of the information dissemination mechanisms of Uzbekistan's regional publications based on scientific sources. It extensively covers the historical development of publications, their theoretical interpretations, and digital transformation, as well as the activities of printed publications in the Kashkadarya region under modern digital communication conditions. The processes of collecting and delivering information by district and city newspapers on local news and socio-cultural issues are revealed through comparative analysis. The article pays special attention to the genre diversity of publications, print-digital channels, legal foundations, and their important role in society.

Keywords: Regional publications, information dissemination aspects, regional press, Kashkadarya region newspapers, digital communication, print and digital media, journalism genres, local information system, mass media, media transformation.

Kirish. Hududiy nashrlar O‘zbekistonning mahalliy va viloyat darajasidagi gazeta, jurnallar, tele va radio kanallarini anglatadi. Ular asosan mahalliy aholiga xizmat ko‘rsatishga yo‘naltirilgan. Asosiy aspektlar:

Mahalliy yangiliklar – viloyatdagi
voqealar, hodisalar va hodisalar
haqida tezkor ma‘lumot berish;

Hududiy ommaviy axborot vositalari (OAV) zamonaviy axborot makonida muhim o‘rin egallab, markaziy nashrlardan farqli ravishda muayyan hudud aholisi ehtiyojlariga bevosita moslashgan holda faoliyat yuritadi [1]. Ularning asosiy vazifasi joylardagi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarni yoritish hamda aholi bilan davlat boshqaruvi organlari o‘rtasida samarali axborot almashinuvini

ta‘minlashdan iborat [2]. Shu jihatdan hududiy nashrlar nafaqat axborot yetkazuvchi vosita, balki ijtimoiy muvozanatni saqlovchi vazifada ham namoyon bo‘ladi [3]. Hududiy nashrlarda beriladigan axborotlar ko‘lami keng bo‘lib, ular orasida mahalliy hokimiyat qarorlari va dasturlari, hududiy iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari,

qishloq xo'jaligi va sanoat yangiliklari,

tadbirkorlik subyektlari faoliyati,

Ijtimoiy masalalar – ta'lim,
sog'liqni saqlash, ijtimoiy yordam va
kommunal xizmatlar bo'yicha
axborot tarqatish;

Madaniy va sport tadbirlari –
mahalliy festival, konsertlar, sport
musobaqalari haqida xabar berish.

aholiga mo'ljallangan maslahatlar,
ob-havo prognozlarini hamda turli e'lonlar alohida o'rin
tutadi [4].

Bu esa hududiy gazetalarini aholining kundalik hayotida
zarur axborot manbaiga aylantiradi [5]. Qashqadaryo viloyati
misolida hududiy nashrlar faoliyatini tahlil qiladigan bo'lsak,
ular ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni yoritishga intilayotganini
ko'rish mumkin. Xususan, viloyat gazetalarida:

hududdagi iqtisodiy islohotlar,
sanoat korxonalarini faoliyati,
ta'lim tizimidagi o'zgarishlar,
sog'liqni saqlash sohasidagi yangilanishlar,
madaniyat va sport hayoti muntazam ravishda yoritib
boriladi [6]. Bu esa aholining turli qatlamlari uchun dolzarb va
foydali axborot olish imkonini yaratadi [7].

Hududiy nashrlarning yana bir muhim jihati - ular turli
jurnalistik janrlardan samarali foydalanadi. Jumladan,

yangiliklar (xabarlar),
tahliliy maqolalar,
reportajlar,

intervyular orqali voqealarni turli usullarda yoritadi [8].
Shu bilan birga, zamonaviy axborot talablari asosida foto
materiallar va infografikalar ham keng qo'llaniladi . Bu esa
axborotni nafaqat tezkor, balki tushunarli va vizual jihatdan boy
tarzda yetkazishga xizmat qiladi [9].

Qarshi shahrida chop etiladigan "Femida" gazetasi
hududiy nashrlar orasida o'zining ixtisoslashuvi bilan ajralib
turadi. Mazkur gazeta ijtimoiy-huquqiy va madaniy
yo'nalishda faoliyat olib borib, jamiyatda huquqiy ong va
madaniyatni oshirishga xizmat qiladi [10]. Unda fuqarolarning
huquqlari, qonunchilikdagi yangiliklar, ijtimoiy muammolar
tahlili keng yoritiladi [11]. Gazetaning yana bir muhim
xususiyati - uning uch tilda (o'zbek, rus va ingliz tillarida) nashr
etilishidir [12]. Bu esa uning auditoriyasini kengaytirib, nafaqat
mahalliy, balki xalqaro o'quvchilarni ham qamrab olish
imkonini beradi [13].

Chiroqchi tumanida faoliyat yurituvchi "Chiroqchi"
gazetasi hududiy matbuotning tarixiy va an'anaviy
namunalaridan biri hisoblanadi. Ushbu gazeta 1932-yildan
buyon muntazam ravishda nashr etilib kelinmoqda va turli davr
siyosiy-ijtimoiy jarayonlarini o'z sahifalarida aks ettirib kelgan
[14]. Bugungi kunda ham u hudud aholisi uchun ishonchli
axborot manbasi bo'lib qolmoqda [15]. Gazetaning ahamiyati
shundaki, u mahalliy muammolarni ko'tarib chiqish va ularning
yechimiga jamoatchilik e'tiborini jalb etishda muhim ahamiyat
kasb etadi [16].

"Sanduvoch" gazetasi esa hududiy nashrlar orasida
madaniy-ma'rifiy yo'nalishga ixtisoslashganligi bilan ajralib
turadi. Ushbu nashr sahifalarida adabiyot, san'at, milliy
qadriyatlar, yoshlar tarbiyasi kabi mavzular keng yoritiladi
[17]. Natijada gazeta nafaqat axborot beruvchi, balki tarbiyaviy
va ma'naviy-ma'rifiy vazifani ham bajaradi [18].

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Manbalar tahlili
shuni ko'rsatadiki, hududiy nashrlar zamonaviy axborot
makonida o'z o'rnini mustahkamlab bormoqda [19].

Xususan, Qashqadaryo gazetasi misolida ko'rish
mumkin, an'anaviy bosma nashr bilan bir qatorda raqamli
platformalar ham faol qo'llanilmoqda [20]. Gazetaning rasmiy
vab-sayti, telegram kanali va facebook sahifasi orqali axborot
tezkor va keng auditoriyaga yetkazilmoqda [21]. Bu esa uning
interaktivlik darajasini oshiradi.

"Femida" gazetasi faoliyati tahlili shuni ko'rsatadiki,
ko'p tillilik tamoyili nashrning axborot qamrovini sezilarli
darajada kengaytiradi [22]. Natijada u nafaqat mahalliy, balki
xalqaro miqyosda ham o'quvchilar e'tiborini jalb etmoqda.

"Chiroqchi" gazetasi esa an'anaviy bosma shaklni
saqlab qolgan holda, zamonaviy axborot vositalariga
moslashishga harakat qilmoqda [23]. Bu esa hududiy
nashrlarning transformatsiya jarayonini yaqqol ko'rsatadi.

"Sanduvoch" gazetasi faoliyati esa hududiy
matbuotning ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi imkoniyatlarini
ochib beradi . Unda chop etilayotgan materiallar
o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi.

Hududiy OAV faoliyatining huquqiy asoslari
O'zbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari
to'g'risida"gi Qonunida mustahkamlangan bo'lib, unda axborot
erkinligi, ochiqlik va jamoatchilikni xabardor qilish tamoyillari
belgilangan [24].

Shuningdek, ilmiy tadqiqotlarda ham hududiy
nashrlarning raqamli transformatsiyasi alohida ta'kidlanadi
[25]. Namangan davlat universiteti materiallarida ularning
internet platformalardagi faolligi va samaradorligi qayd etilgan.

Urganch davlat universiteti tadqiqotlarida esa interaktiv
platformalarning ahamiyati ochib berilgan. M.
Xudoyqulovning ilmiy ishlarida jurnalistikaning jamiyatdagi
ma'rifiy va tarbiyaviy roli chuqur tahlil qilingan [26].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning maqsadi -
Qashqadaryo viloyatidagi hududiy nashrlarning axborot uzatish
jarayonlarini o'rganishdir . Tadqiqot quyidagi metodlar asosida
olib borildi:

Hujjatlar tahlili – viloyat va tuman gazetalarining soni,
tiraji, sahifalari, janr va mavzulari o'rganildi [27].

Raqamli platformalar monitoringi – gazetalar rasmiy
saytlar, Telegram va Facebook sahifalari orqali axborot
tarqatish samaradorligi tahlil qilindi [28].

Kontent tahlili – har bir nashrda chop etilgan
yangiliklar, maqolalar, reportajlar, intervyyular va tahliliy
materiallar mavzu va janr bo'yicha saralandi [29].

Ma'lumot manbalari – gazetalar, rasmiy vab-saytlar,
ijtimoiy tarmoq sahifalari, o'quvchi murojaatlari, shuningdek,
ilmiy va uslubiy adabiyotlar o'rganildi [30]. Ushbu
metodologiya tadqiqotga ilmiy asos berib, natijalarni aniq va
ishonchli qilishga xizmat qiladi [31].

Tahlil va natijalar. Axborot manbalari: Qashqadaryo viloyati va tuman hokimliklari, turli tashkilotlar, jurnalistlar va o'quvchi murojaatlari asosida axborot yetkazilmoqda [32].

Janr va mavzu xilma-xilligi: Gazetalar yangiliklar, maqolalar, reportajlar, intervyular, tahliliy materiallar, foto va infografika orqali voqealarni turlicha yoritadi [33].

Tarqatish kanallari: Qashqadaryo gazetasi - bosma va raqamli platformalarda (sayt, telegram, facebook) faol [34].

Femida gazetasi - uch tilda chop etiladi, ammo bosma nashr va cheklangan raqamli auditoriya mavjud [35].

Chiroqchi gazetasi - an'anaviy bosma shaklda, ammo tuman hokimligi saytida va Facebook orqali ham tarqatiladi.

Sanduvoch gazetasi - asosan bosma, mavzu va auditoriya aniqligi bilan ajralib turadi.

Interaktivlik va auditoriya bilan aloqalar: Qashqadaryo gazetasi telegram va facebook orqali tezkor javob olish imkonini beradi, boshqa nashrlarda interaktivlik nisbatan cheklangan [36]. Mavzu kategoriyalari: Ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy, huquqiy, sport va bayramlar, favqulodda hodisalarni o'z ichiga oladi [37]. Qashqadaryo gazetasi mavzu va janr xilma-xilligi, tezkorlik va interaktivlik jihatidan eng boy hududiy nashr sifatida ajralib turadi. Boshqa hududiy gazetalar esa asosan ma'naviy-ma'rifiy axborotga yo'naltirilgan [38].

Xulosa va takliflar. Hududiy nashrlar mahalliy aholi uchun dolzarb axborot manbai bo'lib, ijtimoiy, huquqiy va madaniy-ma'rifiy tarbiya vazifasini ham bajaradi [39]. Raqamli platformalardan foydalanish hududiy axborot samaradorligini oshiradi, interaktivlik darajasi yuqori bo'lgan nashrlar auditoriyaga tezkor axborot yetkazadi [40]. Janr va mavzu xilma-xilligi o'quvchilarni qiziqitirish va ma'lumotga bo'lgan ehtiyojni qondirishda muhim omil hisoblanadi [41].

Takliflar: Raqamli platformalarni kengaytirish: Chiroqchi, Femida va Sanduvoch gazetalarida Telegram, sayt va ijtimoiy tarmoqlar faolligini oshirish.

Janr xilma-xilligini oshirish: Yangiliklar, reportajlar, tahliliy maqolalar va infografikalarni ko'proq joriy etish, yosh ijodkorlarni rag'batlantirish.

Huquqiy va madaniy mavzularni kuchaytirish: Ayniqsa Femida gazetasi misolida, ijtimoiy-huquqiy xabardorlikni oshirish.

O'quvchi bilan interaktiv aloqa: Onlayn forumlar, so'rovnomalalar va sharhlar orqali auditoriya fikrini nashrga jalb etish. Mana shu kabi takliflar orqali hududiy bosma nashrlar qamrovi kengayadi va auditoriya uchun manfaatli bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Femida gazetasi. 2018 yil 27-dekabr, № 23-24. – Qarshi shahar.
2. NamDU-ARM-1063. Axborot xizmatlari. – Turan-edu.uz, 2024. – URL: https://turan-edu.uz/media/books/2024/05/31/NamDU-ARM-1063-10.Axborot_xizmatlari.pdf (18.03.2026).
3. O'zbekiston Respublikasi. "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonun. 2019 yil. – Toshkent: O'zSSR.
4. Qashqadaryo gazetasi. 2026 yil 12-mart, № 011. – Qarshi: Qashqadaryo matbuoti.
5. Qashqadaryo gazetasi rasmiy veb-sayti. – URL: <https://qashqadaryogz.uz> (18.03.2026).
6. Qashqadaryo gazetasi Telegram kanali. – URL: <https://t.me/qashqadaryogz> (18.03.2026).
7. Qashqadaryo gazetasi Facebook sahifasi. –
8. URL: <https://facebook.com/qashqadaryogz> (18.03.2026).
9. Sanduvoch gazetasi. 2022 yil 2-fevral, № 02. – Qarshi shahri.
10. Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy-metodik markaz. Jurnalistika bo'yicha avtoreferat. – Interaktiv.oak.uz. – URL: <https://www.interaktiv.oak.uz/avtoreferat/3aO14545fO1.file> (18.03.2026).
11. Xudoyqulov M. Jurnalistikaga kirish. – Ziyouz.com. – URL: <https://ziyouz.com/books/jurnalistika/Muxtor%20Xudoyqulov.%20Jurnalistikaga%20kirish.pdf> (18.03.2026).
12. Chiroqchi gazetasi. 2015 yil 13-fevral, № 7. – Chiroqchi: Tuman matbuoti.